



Received: April 8, 2026
Accepted: May 23, 2026
Available online: May 25, 2026

Nasiba Zayniyeva

Mustaqil izlanuvchi
Samarqand davlat chet tillar instituti
Samarqand, O'zbekiston

SHAXSGA YO'NALTIRILGAN YONDASHUV ASOSIDA BO'LAJAK CHET TILI O'QITUVCHILARINING AXBOROT KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISH

ANNOTATSIYA

Ushbu tadqiqotning dolzarbligi zamonaviy ta'lim jarayonida axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi va chet tili o'qituvchilariga qo'yiladigan talablarning o'sishi bilan bog'liq. Raqamli davrda bo'lajak chet tili o'qituvchilarining axborot kompetensiyasini samarali shakllantirish muammosi dolzarb hisoblanadi. Mazkur maqolaning asosiy maqsadi shaxsga yo'naltirilgan yondashuv asosida bo'lajak chet tili o'qituvchilarining axborot kompetensiyasini shakllantirishning nazariy va metodik asoslarini ishlab chiqish hamda uni oliy ta'lim jarayonida amaliyotga tatbiq etishdan iborat.

Mazkur maqsad asosida axborot kompetensiyasi tushunchasining mohiyatini, tarkibiy qismlari va bo'lajak chet tili o'qituvchisi faoliyatidagi o'rnini nazariy jihatdan tahlil qilish, shaxsga yo'naltirilgan yondashuvning mazmuni va tamoyillarini axborot kompetensiyasini shakllantirishda qo'llash imkoniyatlarini aniqlash, shaxsga yo'naltirilgan yondashuvga asoslangan axborot kompetensiyasini rivojlantirish bo'yicha metodik model ishlab chiqish, tajriba-sinov ishlarini o'tkazish orqali taklif etilgan modelning samaradorligini eksperimental tekshirishdan iborat bo'lgan vazifalar belgilab olindi.

Tadqiqotda shaxsga yo'naltirilgan ta'limning "individualizatsiya", "differensial yondashuv", "metakognitiv rivojlanish" tamoyillari nazariy tahlil qilinib, ularning axborot kompetensiyasini shakllantirish jarayonida "axborot savodxonligi", "tanqidiy fikrlash va mustaqil o'qish strategiyalari"

Nasiba Zayniyeva

Independent Researcher
Samarkand State Institute of Foreign Languages
Samarkand, Uzbekistan
E-mail: nasibazayniyeva@gmail.com
ORCID iD: 0009-0003-6612-4073

DEVELOPING THE INFORMATION COMPETENCE OF PRE-SERVICE FOREIGN LANGUAGE TEACHERS BASED ON A LEARNER-CENTERED APPROACH

ABSTRACT

The relevance of this study is driven by the rapid advancement of information technologies in contemporary education and the increasing demands placed on future foreign language teachers. The main aim of this article is to establish the theoretical and methodological basis for developing information competence in future foreign language teachers through a person-centered approach and to apply it in higher education practice.

To achieve this aim, the study addresses several tasks: analyzing the concept of information competence, its structural components, and its role in the professional activity of foreign language teachers; exploring the potential of person-centered principles in developing this competence; designing a methodological model for its formation; and testing the effectiveness of the proposed model through experimental research.

The study theoretically examines key principles of person-centered education, including individualization, a differentiated approach, and metacognitive development. It also highlights their significance in enhancing information literacy, critical thinking, and independent learning strategies during the formation of information competence. A structured content model was developed, consisting of key stages: identifying information needs, searching for information, critically evaluating sources, processing data, and presenting results. This model was integrated

kompetensiyalarini rivojlantirishdagi ahamiyati ilmiy jihatdan asoslangan. Axborot kompetensiyasining “ehtiyojni anglash”, “axborotni izlash”, “tanqidiy baholash”, “qayta ishlash”, “taqdim etish”dan iborat tarkibiy elementlariga asoslangan mazmuniy model yaratilib, uni shaxsga yo’naltirilgan yondashuv asosida o’quv dasturi, dars jarayoni va loyihaviy faoliyatga bosqichmabosqich joriy etish mexanizmi takomillashtirilgan. AASL va SCONUL axborot savodxonligi kompetensiyalari tamoyillari mezonlariga tayan-gan holda axborot kompetensiyasini shakllantirishda talabalarning shaxsiy qiziqishlari hamda metakognitiv ko’nikmalarini rivojlantirish orqali shaxsiy rivojlanish va mustaqil o’qish bilan uyg’unlashgan integrallashgan metodik tizimni ta’minlashi ilmiy jihatdan isbotlangan.

Tadqiqotning maqsad va vazifalarini amalga oshirish maqsadida respublikamizning 3 ta viloyatidan 3 ta filologik oliy ta’lim tashkilotlari tanlab olindi va respondentlar jalb qilindi. Tajriba boshi va oxiridagi natijalar umumlashtirilib, matematik statistik tahlil asosida umumiy rivojlanish ko’rsatkichlari aniqlandi. Xulosada shaxsga yo’naltirilgan yondashuv bo’lajak chet tili o’qituvchilarining axborot kompetensiyasini shakllantirishning samarali usuli ekanligi va ishlab chiqilgan model va metodik tavsiyalar oliy ta’lim tashkilotlarida chet tili mutaxassislarini tayyorlash sifatini oshirishga xizmat qilishi aniqlangan.

Kalit so’zlar: shaxsga yo’naltirilgan yondashuv, axborot kompetensiyasi, raqamli ta’lim, metodik model, pedagogik eksperiment, AASL, CRAAP, SCONUL, soxta ma’lumot, ilmiy kompetensiya.

KIRISH

Dunyoda bugungi kunda global axborotlashgan davrda, shaxsning axborot oq-imida mustaqil, ongli va samarali faoliyat yuritishi, axborotni tanqidiy baholashi, tahlil qilishi va ijodiy qo’llashi ta’limning asosiy maqsadlaridan biriga aylangan. Shu tufayli, axborot kompetensiyasini shakllantirish nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham dolzarb vazifadir. Zarurati shundan iboratki, hozirgi tezkor axborot oqimida faqat tayyor bilimni o’zlashtirish yetarli emas [Cooke, 2018; 45]. Ayniqsa, raqamli dunyo sharoitida soxta yoki noto’g’ri axborotni ajratish, ma’lumotlarni tekshirish va ularni mas’uliyat bilan qo’llash ko’nikmasi hayotiy ahamiyatga ega bo’lib qoldi. Shu sabab, shaxsga yo’naltirilgan yondashuv orqali axborot kompetensiyasini rivojlantirish nafaqat ta’lim jarayonining sifatini oshiradi, balki talabani umrbod o’rganishga tayyorlaydi [Lau, 2006; 14].

Jahon tajribasida bu yo’nalishda ko’plab nazariy va amaliy tadqiqotlar olib

step by step into curriculum design, classroom instruction, and project-based learning within a person-centered framework. Based on AASL and SCONUL information literacy standards, the study demonstrates that this approach forms a coherent methodological system that supports both personal development and metacognitive abilities.

To implement the research objectives, three philological higher education institutions from different regions of the republic were selected, and participants were involved in the study. Pre- and post-experiment results were collected and analyzed using mathematical and statistical methods. The findings confirmed that the person-centered approach is an effective means of developing information competence in future foreign language teachers and contributes to improving the quality of professional training in higher education institutions.

Key words: person-centered approach, information competence, digital education, methodical model, pedagogical experiment, AASL, CRAAP, SCONUL, fake news, scientific competence.

borilgan. Xususan, axborot kompetensiyasini rivojlantirishga oid eng yirik va izchil yondashuvlardan biri bu – AASL (American Association of School Librarians) tomonidan ishlab chiqilgan “21st Century Learner Standards” modeli bo‘lib, unda talabalarning axborotni izlash, boshqarish, baholash va undan foydali natija yaratish bosqichlari chuqur yoritiladi [Alewine & Canada, 2017; 49]. Axborotni tanqidiy baholash bo‘yicha esa, AQSh tadqiqotchilari tomonidan ishlab chiqilgan CRAAP modeli (Currency, Relevance, Authority, Accuracy, Purpose) alohida o‘rin tutadi. U talabalarga axborotni nafaqat topish, balki uni baholash, ishonchliligini tekshirish, dolzarbligini aniqlash va maqsadga mosligini tahlil qilishni o‘rgatadi. Bu esa o‘z navbatida shaxsning tanqidiy fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi [Landøy et al., 2020; 32].

Bugungi ta‘lim jarayonida inson omiliga, uning ehtiyojlari, kompetensiyalari va shaxsiy rivojlanishiga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvning pedagogik, metodik, nazariy va ilmiy asoslarini chuqur tahlil qilish, uning tarixiy shakllanish bosqichlarini ko‘rsatish, an‘anaviy ta‘lim bilan taqqoslash orqali afzalliklarini ochib berish - mazkur ilmiy ishning asosiy maqsadidir. Shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvning samarali amalga oshirilishi uchun u nafaqat nazariy, balki mustahkam pedagogik va metodik asoslarga ham tayanishi zarur. Bu yondashuvda talaba o‘rganish jarayonining markazida turadi. O‘qituvchi esa yo‘lboshchi, yordamchi, motivator sifatida faoliyat yuritadi. Ushbu yondashuv quyidagi asosiy **pedagogik** tamoyillarga tayanadi (1-jadvalga qarang):

1-jadval

Shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvning pedagogik tamoyillari

№	Tamoyil nomi	Izohi
1.	Shaxsga hurmat	Har bir talabaning qadr-qimmatini tan olinadi
2.	Individual yondashuv	Har bir talabaning ehtiyojlari va kompetensiyalari hisobga olinadi
3.	Faollik va mustaqillik	Talaba o‘quv faoliyatida faol ishtirok etadi
4.	O‘zini o‘zi rivojlantirishga yo‘naltirish	Talabaga tanlov erkinligi va refleksiya imkoniyati beriladi
5.	Hamkorlik va muloqot	Talaba va o‘qituvchi o‘rtasida teng huquqli muloqot

Shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvi negizida bugungi kunda ko‘plab texnologiyalar bosqichma-bosqich amaliyotga jory etilmoqda, jumladan: muammoli o‘qitish texnologiyalari alohida o‘rin egallab, u talabalarni mustaqil ravishda bilim izlashga undaydigan, savollarni shakllantirish, yechim topish va xulosa chiqarishga o‘rgatuvchi vositadir (2-jadvalga qarang):

2-jadval

Muammoli o‘qitish bosqichlari

Muammoli o‘qitish bosqichlari	Faoliyat turi
1. Muammo qo‘yiladi	O‘qituvchi tomonidan yoki talabalar tomonidan
2. Taxminlar ilgari suriladi	Talabalar fikr yuritadi
3. Ma‘lumotlar izlanadi	Axborot manbalaridan foydalanish
4. Yechimlar ishlab chiqiladi	Guruhli tahlil, bahs-munozara

Yana muhim texnologiyalardan biri “portfolio texnologiyasi – bu texnologiyada

har bir talaba oʻz shaxsiy rivojlanishini kuzatib, doimiy ravishda qayd etib boradi. U oʻz portfeliga mustaqil ishlar, yozma topshiriqlar, refleksiya yozuvlari, tahliliy insho va prezentatsiyalarni jamlaydi [d'Angelo et al., 2016; 112]. Shaxsga yoʻnaltirilgan yondashuvda formativ baholash ustuvor hisoblanadi va uning turlari quyidagilardan iborat [Delmond et al., 2024; 87] (3-jadvalga qarang):

3-jadval

Formativ baholash turlari

Formativ baholash turlari	Tavsifi
1. Oʻzini baholash	Talaba oʻz bilimini oʻzi tahlil qiladi
2. Oʻzaro baholash (peer-assessment)	Talabalar bir-birining ishlarini baholaydi
3. Refleksiya	Dars yakunida tahlil va mulohaza qilish
4. Reytingli jurnallar	Bosqichma-bosqich rivojlanishni kuzatish

Anʼanaviy taʼlimda oʻqituvchi bilim beruvchi markaziy rolni bajarsa, shaxsga yoʻnaltirilgan taʼlimda u quyidagi rollarni bajaradi (4-jadvalga qarang):

4-jadval

Anʼanaviy va shaxsga yoʻnaltirilgan taʼlimda pedagog

Anʼanaviy oʻqituvchi	Shaxsga yoʻnaltirilgan taʼlim oʻqituvchisi
Bilim beruvchi	Yoʻlboshchi (facilitator)
Nazorat qiluvchi	Qoʻllab-quvvatlovchi
Passiv tinglovchilarni boshqaruvchi	Faol ishtirokchilarni ragʻbatlantiruvchi

Shaxsga yoʻnaltirilgan yondashuv taʼlim tizimining tub mohiyatini oʻzgartiradi. U oʻqituvchini markazdan olib, talabani markazga qoʻyadi. Anʼanaviy taʼlimda asosiy urgʻu bilim berishga qaratilgan boʻlsa, shaxsga yoʻnaltirilgan taʼlimda asosiy maqsad – talabaning shaxsiy oʻsishi, mustaqilligi va metakognitiv faolligidir [Mackey & Jacobson, 2014; 201].

Tadqiqotimiz davomida ilmiy-nazariy tahlil metodidan foydalanib ish olib borilganda, anʼanaviy taʼlim va shaxsga yoʻnaltirilgan taʼlim asosida olib borilgan darslar tahlilga tortildi, quyida ushbu ikki uslubdan foydalangan holda tashkil etilgan darslar tahlili natijalarini beramiz (5-jadvalga qarang):

5-jadval

“Tabiat va iqlim” mavzusida ingliz tili darsi

Dars mazmuni	Anʼanaviy taʼlimda	Shaxsga yoʻnaltirilgan taʼlimda
Dars boshida	Oʻqituvchi mavzuni tushuntiradi	Talabalar oʻz tajribasiga asoslangan fikr aytadi
Oʻrganish usuli	Maʼruza, diktant	Kichik guruhli tadqiqot, interaktiv karta ishlari
Foydalaniladigan vosita	Kitob, doska	Multimedia, interaktiv ilovalar
Yondashuv	Har bir talabaga bir xil topshiriq	Moslashtirilgan topshiriqlar, tanlovli faoliyat
Yakuniy bosqich	Nazorat ishi	Portfolio, oʻz-oʻzini baholash, refleksiya

Yuqoridagi jadvalda berilgan maʼlumotlarga koʻra, anʼanaviy taʼlimdan koʻra shaxsga yoʻnaltirilgan yondashuvning quyidagi afzalliklari namoyon boʻldi: har bir

talabaniing individualligi e'tiborga olinadi, talabani faol ishtirokchiga aylantiradi, talabaniing mustaqil fikrlashi va tanqidiy yondashuvini rivojlantiradi, erkin muloqot va ijodkorlik muhiti yaratiladi, ichki motivatsiyani kuchaytiradi. Ushbu yondashuv talabaniing ehtiyojlariga asoslangan holda o'quv jarayonini tashkil etish orqali ta'lim sifatini oshiradi, mustahkam motivatsiya va faol ishtirokni ta'minlaydi. U o'zining reflektiv xarakteri bilan an'anaviy ta'limdan tubdan farq qiladi [Gregory & Higgins, 2015; 73]. Bunday yondashuv bugungi kunda global miqyosda ta'lim islohotlarining markazida turibdi.

Shaxsga yo'naltirilgan yondashuv - zamonaviy ta'lim tizimida talabaniing individualligini e'tirof etgan, uning ehtiyojlari, qiziqishlari, bilish darajasi va rivojlanish sur'atlariga mos o'quv muhiti yaratishni maqsad qilgan ilg'or pedagogik yo'nalishdir. Ushbu yondashuv: talaba shaxsini faol subyekt sifatida qabul qiladi; uni bilimni o'zlashtirishda passiv emas, balki faol izlanuvchi sifatida shakllantiradi; ichki motivatsiyasini kuchaytiradi; refleksiya, tanqidiy fikrlash va ijodiy yondashuvlarni rivojlantiradi. Nazariy jihatdan konstruktivizm, gumanistik psixologiya va sotsiokonstruktivizmga tayanadi. Pedagogik jihatdan esa bu yondashuv individuallashtirish, differensiallashtirish, moslashtirilgan baholash, hamkorlikda ta'lim, portfolioga asoslangan yondashuv kabi metodlarni o'z ichiga oladi [Butler et al., 2021; 96].

Raqamli davrda insonning o'zini dolzarb axborot oqimida samarali tutishi uchun faqat texnik ko'nikmalar yetarli emas. Buning uchun keng ko'lamli axborot kompetensiyasi (ICT) – ya'ni axborotni topish, baholash, boshqarish va tanqidiy tahlil qilish kompetensiyasi zarur. Ferrari va INTEF tomonidan tasvirlangan raqamli kompetensiya konsepsiyasida buning asosiy tarkibiy qismi berilgan [Mbandje, 2023; 75]. Axborot kompetensiyasi insonning kompyuter, mobil qurilmalar, dasturiy vositalarni bilish va foydalanishidan iborat bo'lib, shuningdek, tarmoqlar orqali axborotni qidirish, yig'ish, strukturalashtirish, yaratish, xavfsiz foydalanish va muammolarni hal qilishni o'z ichiga oladi. Ta'lim jarayonida axborot kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) dan foydalanish akademik ko'rsatkichlarga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi [Weiner, 2011; 56]. Ta'limda pedagoglarning axborot kompetensiyasi hozirgi davrda strategik ahamiyatga ega. Masalan, DigCompEdu, ISTE standarti, UNESCO va INTEF kabi tashkilotlar tomonidan ishlab chiqilgan kompetensiya modellarida axborot-kompetensiya alohida tavsiflangan [Chen et al., 2022; 59]. Krumsvik esa pedagoglarning texnologik vositalarni didaktik natijalarga muvofiq tanlashi, integratsiyalashi va baholash kompetensiyasini yuqori darajada zarur deb hisoblaydi [Trixa et al., 2024; 66]. Shuningdek, PISA 2018 doirasida talabalar uchun ICT kompetensiyasi modellari ishlab chiqildi. Bu modelda o'qish malakasi uch qismdan iborat: ICTga kirish imkoniyati, AKTdan foydalanish darajasi va AKT kompetensiyasining mohiyati (maqsadli, mas'uliyatli foydalanish) [Rader, 2002; 81].

Axborot kompetensiyasi o'zi ham alohida taraflarga ajratiladi: axborotni qidirish, baholash, boshqarish, yaratish va taqdim qilish [Alewine & Canada, 2017; 51]. Bu kompetensiya hayot davomida uzluksiz o'rganish va axborotni tahlil qilish – asosiy ko'nikma sifatida qaraladi. Zamonaviy ta'lim va kasbiy faoliyat talablariga javob beradigan pedagog va talaba uchun AKT va axborot kompetensiyalari bir-biri

bilan chambarchas bog‘liq. Birgalikda shakllantirilsa har bir kishi raqamli jamiyatda muvaffaqiyatli bo‘lishi mumkin [Forster, 2017; 45].

Raqamli savodxonlik va axborot kompetensiyasi zamonaviy insonning kasbiy, madaniy va ijtimoiy hayotida ajralmas tarkibiy qismga aylanmoqda [Eisenberg et al., 2004; 5]. AKT tushunchasi asosan kompyuter, internet, mobil texnologiyalar, tarmoqli aloqa va raqamli axborotni ishlab chiqish, uzatish va saqlash vositalarini o‘z ichiga oladi.

Axborot kompetensiyasi bu - shaxsning turli manbalardan axborotni mustaqil izlab topishi, saralashi, baholashi, undan maqsadga muvofiq foydalanishi, uni tahlil qilishi va o‘z faoliyatida qo‘llash ko‘nikmasidir [Anunobi & Udem, 2014; 16]. Bu kompetensiya ko‘pincha quyidagi asosiy ko‘nikmalardan tashkil topadi:

- *axborotni izlash va topish*: kerakli axborotga ega bo‘lish uchun samarali qidiruv strategiyalarini ishlab chiqish va axborot manbalarini tahlil qilish;
- *axborotni baholash*: manbalar ishonchliligi, yangiligi, muallifligi, obyektivligi asosida axborotni tanqidiy tahlil qilish;
- *axborotni boshqarish*: axborotni saqlash, tashkil qilish, kategoriyalarga ajratish va uni tizimlashtirish;
- *axborotni yaratish va ifodalash*: mavjud axborot asosida yangi g‘oya, kontent, prezentatsiya yoki ilmiy ish yaratish;
- *etik va ijtimoiy jihatlar*: mualliflik huquqlariga rioya qilish, plagiatdan saqlanish, ijtimoiy mas‘uliyatni his qilish.

Ushbu komponentlar UNESCO, IFLA, ACRL (American College & Research Libraries), va DigComp modellari tomonidan ham aniq tavsiflangan [Association of College and Research Libraries, 2016; 23]. Ko‘plab ilmiy izlanishlarda axborot kompetensiyasi bilan raqamli savodxonlik (digital literacy) tushunchalari o‘zaro bog‘liq ekani qayd etilgan [Saranto & Hovenga, 2004; 42]. Bukingham fikricha, raqamli savodxonlik bu faqat texnik bilim emas, balki raqamli axborotlarni tanqidiy anglash, axloqiy mezonlarda foydalanish va interaktiv vositalar orqali o‘z fikrini ifoda etishdir [Welsh & Wright, 2010; 70]. Shunday ekan, raqamli savodxonlikni rivojlantirish axborot kompetensiyasining tarkibiy qismi sifatida qaraladi.

Axborot kompetensiyasi nafaqat talabalarda, balki o‘qituvchilarda ham yetarli-chi shakllangan bo‘lishi lozim [Brennan et al., 2020; 90]. Pedagog AKT vositalaridan foydalanib, bilim berishni interfaol, shaxsga yo‘naltirilgan shaklda tashkil etishi zarur. Shu boisdan, zamonaviy o‘qituvchi “axborot vositachisi”dan “raqamli bilim rahbari”ga aylanishi talab etilmoqda. OECD tomonidan olib borilgan “PISA 2018” hisobotida talabalarining kompyuter va internetdan foydalanish kompetensiyalari akademik yutuqlari bilan bevosita bog‘liq ekani aniqlangan. Xususan, yaxshi raqamli kompetensiyaga ega talabalar matnli savollarni hal qilishda yuqori ko‘rsatkichlarga ega bo‘lishgan.

Yuqoridagi tahlillardan kelib chiqib, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va axborot kompetensiyasi bugungi ta‘limning ajralmas elementi ekanligi ayon bo‘ladi [Welsh & Wright, 2010; 74]. U nafaqat texnologik, balki kognitiv, tanqidiy, ijtimoiy va axloqiy ko‘nikmalarni o‘z ichiga olgan murakkab kompetensiyadir [ACRL,

2016; 5]. Ta'lim sohasida axborot kompetensiyasini tizimli rivojlantirish orqali raqamli jamiyatga mos, bilimli va mas'uliyatli shaxsni tarbiyalash mumkin.

Axborot kompetensiyasini rivojlantirishda an'anaviy o'qitish metodlari yetarli emas. Chunki bu kompetensiya faqat bilimni yod olish emas, balki axborotni tanlash, tahlil qilish, qayta ishlash va taqdim etish kabi murakkab kognitiv faoliyatlarni talab qiladi. Shu sababli quyidagi metodik yondashuvlar samarali hisoblanadi:

- *muammoli o'qitish (problem-based learning)* – talabalarga axborotni o'zlari izlab topish, tanqidiy fikrlash asosida yechim topish ko'nikmasini beradi;

- *loyiha asosida o'qitish (project-based learning)* – talabalar axborotni yig'ish, tahlil qilish va natijasini loyiha tarzida taqdim qilish orqali raqamli savodxonlikni oshiradilar;

- *media savodxonlik mashg'ulotlari* – ijtimoiy tarmoqlar, yangiliklar va onlayn resurslar bilan ishlashni, yolg'on axborotni farqlashni o'rgatadi;

- *axborotni baholash vositalari* – talabalarga axborot manbalarining ishonchligini aniqlash mezonlarini (mualliflik, manba sifati, kontekst) o'rgatadi;

- *AKT asosidagi testlar, viktorinalar, vebinarlar* – interaktiv muhitda bilimlarni mustahkamlashga xizmat qiladi [Lanning & Gerrity, 2022; 115].

Bularning barchasi axborot kompetensiyasining mustahkam rivojlanishini ta'minlash uchun zamonaviy yondashuvlardan foydalanishni zaruratga aylantiradi. O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimida raqamli transformatsiya jarayonlari bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda. Biroq hozirda pedagoglarda raqamli kompetensiyasining yetarli emasligi, ta'lim tashkilotlarida internet va texnik vositalarning yetishmasligi, ta'lim resurslarining asosiy qismi rus va ingliz tillarida bo'lishi, axborotni baholash va tanqidiy tahlil qilishga o'rgatadigan metodikalarning kamligi kabi muammolar mavjud. Quyida O'zbekistonda axborot kompetensiyasini rivojlantirishga oid tavsiyalar keltirilmoqda:

- pedagoglar uchun raqamli kompetensiya kurslarini tizimli yo'lga qo'yish;

- darslik va metodik qo'llanmalarda axborot bilan ishlash topshiriqlarini ko'paytirish;

- "Axborot kompetensiyasi" bo'yicha alohida fan yoki modullarni kiritish;

- talabalar portfoliolari orqali raqamli kontent yaratish va tahlil qilish ko'nikmalarini baholash;


- ta'lim dasturlarini DigComp va ISTE standartlari bilan integratsiyalash;

- ta'lim muassasalarida "media-savodxonlik klublari" tashkil etish;

- onlayn va oflayn axborot xavfsizligi bo'yicha maxsus treninglar.

Ushbu chora-tadbirlar amalga oshirilsa, O'zbekiston ta'lim tizimida nafaqat axborot kompetensiyasi, balki umumiy raqamli madaniyat ham sezilarli o'sishga erishadi. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari XXI asrda nafaqat jamiyat, balki har bir insonning fikrlashi, ishlashi va o'rganish uslubini o'zgartirmoqda. Shu munosabat bilan axborot kompetensiyasi ta'limning barcha bosqichlarida asosiy kompetensiyalardan biri sifatida qaralmoqda [Taylor & Jaeger, 2021: 85]. U nafaqat texnologik ko'nikmalarni, balki tanqidiy fikrlash, axborot madaniyati, axborot xavfsizligi va ijtimoiy mas'uliyatni qamrab oladi [Eisenberg et al., 2004: 115]. Axborot kompetentli-

giga asoslangan holda chet tilni o'qitishda tahliliy manbalarga tayanib, maxsus model taklif qilindi:



Axborot kompetensiyasi va chet til ta'limi integratsiyasi modeli

Ushbu model konseptual modelning asosiy tamoyillariga asosan ishlab chiqildi va ushbu model axborot kompetentligi asosida chet tilini o'qitishning integra-

tiv modeli deya nomlandi, quyida uning asosiy g'oyasi va tarkibiy qismlari xususida ma'lumot taqdim etiladi.

Modelning asosiy g'oyasi chet tilini o'rganish jarayonida axborot kompetentligini rivojlantirishni markazga qo'yadi. Unda talaba zamonaviy texnologiyalar yordamida til o'rganish vositalarini mustaqil topish, tahlil qilish, baholash va ulardan samarali foydalanishni o'rganadi. Ushbu g'oya asosida modelning quyidagi tarkibiy qismlari aniqlab olindi:

kognitiv blok (bilim va tushuncha): axborot va uning turlari haqidagi bilimlar, chet tili grammatikasi, leksikasi va madaniy konteksti, axborot manbalaridan (maqolalar, videolar, podkastlar, onlayn kurslar) foydalanish ko'nikmalarini o'z ichiga oladi.

operatsion-blok (amaliy faoliyat): axborotni izlash (search skills): Google, JSTOR, Linguee, YouTube kabi manbalarni samarali qo'llash, axborotni tahlil qilish: ishonchlilikni tekshirish, til uslubi, kontekstni aniqlash, axborotdan foydalanish: esse yozish, tarjima qilish, og'zaki chiqish tayyorlash kabi tarkibdan iborat.

reflektiv blok (o'z-o'zini baholash va rivojlantirish): o'z bilim va ko'nikmalarini baholash (metakognitiv yondashuv), til o'rganish strategiyalarini qayta ko'rib chiqish, feedback asosida rivojlanish (masalan, AI yordamida tahlil qilish) kabi qismlarni o'z ichiga oladi.

Ushbu integrativ modelimiz quyidagi asosiy tamoyillar asosida ishlab chiqilgan (6-jadvalga qarang):

6-jadval

Modelning tamoyillari

Tamoyillar	Izoh
Integratsiya	Til o'rganish axborot kompetentligini shakllantirish bilan bog'liq tarzda olib boriladi
Faollik	O'rganuvchi axborotni izlash, saralash va tahlil qilishda faol bo'ladi
Refleksiya	O'rganuvchi o'z faoliyatini tahlil qiladi va takomillashtiradi
Texnologik moslashuvchanlik	Zamonaviy IT vositalari (ChatGPT, AI tarjimonlar, quiz platformalari) faol qo'llaniladi

Modellarga qo'yilgan talablarga ko'ra, ular ishlab chiqilishi jarayonida albat-ta metodik yondashuvlar integratsiyasi qonuniyatlariga ham amal qilishi lozim. Biz ushbu modelni taklif qilish jarayonida quyidagi metodik yondashuvlarga tayandik: CLIL (Content and Language Integrated Learning): chet tilida axborot izlash va uni o'rganish orqali tilni egallash. Task-based learning: axborotga asoslangan topshiriqlar bajarish. Project-based learning: axborot izlab loyiha tayyorlash (prezentatsiya, video, maqola). Digital literacy integration: raqamli savodxonlikni til o'rganishga integratsiya qilish. Ushbu metodik yondashuvlar bugungi kunda sifatli ta'limni joriy qilishga xizmat qilmoqda, aynan mana shu ko'rsatkich bizga model mazmunini shakllantirishda ushbu yondashuvlardan foydalanishga asos bo'lib xizmat qildi. Har qanday model yaratilishida undan kutilayotgan natijalarning gipotezasi aniqlab olinib, asosli ravishda prognoz qilinadi, ya'ni ushbu model komponentlarining yoki modelning har bir bosqichi tizimli ishlaganda qanday natijalarga erishilishi oldindan bashorat qilinadi, biz taklif etgan ushbu modelda kutilayotgan amaliy natijalar quyidagilar etib

belgilangan (7-jadvalga qarang):

7-jadval

Modeldan kutilayotgan natijalar

Kompetensiya turi	Namoyon bo'lish shakli
Axborot kompetentligi	Mustaqil izlash, tahlil qilish, foydalanish
Til kompetensiyasi	So'zlashuv, yozma, tinglab tushunish va o'qish ko'nikmalari
Madaniyatlararo muloqot	Chet tilidagi madaniy kontekstni tushunish va qo'llash
Metakognitiv kompetensiya	O'z faoliyatini rejalashtirish, baholash, rivojlantirish

Axborot kompetentligi (axborot savodxonligi) – bu shaxsning axborotni qidirish, aniqlash, baholash, yaratish va samarali foydalanish kompetensiyalarini o'z ichiga olgan ko'nikmalardir. UNESCO tavsiyalariga ko'ra, axborot-savodxonlik odamlarni *“hayotning turli jabhalarida ma'lumotni izlash, baholash, foydalanish va yaratish bo'yicha quvvatlash”* orqali ularning shaxsiy, ijtimoiy, kasbiy va ta'limiy maqsadlariga erishishiga yordam beradi [American Library Association, 1989; 75]. Ya'ni, axborot-savodxonlik – talabalarga zamonaviy axborot jamiyatida faol rol o'ynash va qaror qabul qilish uchun zarur bo'lgan bilim va ko'nikmalarni beradi. XXI asr malakalariga doir UNESCO ma'lumotlarida axborot-savodxonlik alohida ko'nikma sifatida keltirilgan. Bu ko'nikmalar talabalarni raqamli va media-muhitda munosib harakat qiladigan shaxsga aylantiradi. UNESCO Media va Axborot Savodxonligi (MIL) strategiyasida esa axborot-savodxonlik media-savodxonlik bilan birlashtirilgan: mazkur dastur talabalarga media mahsulotlarni tanqidiy tahlil qilish, dezinformatsiyadan himoyalanih va ishonchli axborot manbalarini tanlay olish ko'nikmalarini o'rgatishni nazarda tutadi. Boshqacha aytganda, jamiyatda keng tarqalgan yolg'on xabarlariga qarshi kurashish va axborot muhitiga bo'lgan ishonchni oshirish uchun axborot-savodxonlik muhim vosita sanaladi [Horton, 2008; 65].

Davlat miqyosida ham axborot-savodxonlikka urg'u berilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining strategik hujjatlarida ta'limda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish belgilangan. UNESCO hisobotiga ko'ra, 2024-yildan boshlab, O'zbekistonda o'qituvchilarni malaka oshirish siyosatining asosiy yo'nalishi sifatida raqamli transformatsiya va sun'iy intellekt imkoniyatlaridan foydalanishga tayyorlash ko'zda tutilgan. Shu doirada OTT va oliy ta'lim muassasalarida kompyuter sinfxonalari tashkil qilinmoqda, o'quvchilarga va talabalarga onlayn resurslardan foydalanish imkoniyatlari yaratilmoqda. Bu esa ularda axborot-savodxonlikni rivojlantirishga xizmat qiladi. Biroq O'zbekistonda hali ham ayrim muammolar saqlanib qolmoqda: ilmiy darslik va o'quv materiallar kam, ba'zi hududlarda internet va zamonaviy jihozlar yetishmaydi. Kichik auditoriyalardan tortib oliygacha pedagoglarga yangi metodikalarni o'rgatish bo'yicha tizimli choralarga ehtiyoj mavjud.

Shaxsga yo'naltirilgan pedagogik yondashuv va axborot-savodxonlik konseptlari bir-birini to'ldiruvchi ta'lim yondashuvlaridir. Talaba markazda yondashuvi ta'lim amaliyoti talabaning individual xususiyatlari va faolligini rivojlantirsa, axborot-savodxonlik unga zamonaviy axborot makonida ma'lumotlarni tanqidiy va samarali boshqarishga yordam beradi [Rath, 2023; 76]. Xalqaro tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ushbu ikki yondashuvni uyg'unlashtirish talabalarning tanqidiy fikrlash,

izlanish va ijodkorlik kompetensiyalarini mustahkamlaydi. Bu nafaqat ta'lim mazmunini boyitadi, balki ta'lim metodikasini ham innovatsion qiladi [d'Angelo et al., 2016; 94]. O'zbekistonda ham ta'lim islohotlari doirasida bu tamoyillarga mos yondashuvlarni joriy etish ustida ishlanmoqda. Kelgusida pedagoglarni qayta tayyorlash, zamonaviy axborot resurslarini keng joriy etish va darsliklarni yangilash orqali yosh avlodni samarali axborot-kompetent kishiga aylantirish muhim vazifa hisoblanadi. Mazkur yo'nalishlarni rivojlantirish O'zbekistonda sifatli ta'lim berish va XXI asr ko'nikmalariga ega fuqarolarni tayyorlashni ta'minlashga xizmat qiladi.

Axborot asri sharoitida bilim va malakalarning eng muhim ko'rinishlaridan biri bu axborot bilan ongli, samarali va mas'uliyatli ishlash kompetensiyasidir. Bunday kompetensiyani odatda "axborot savodxonligi" yoki "axborot kompetensiyasi" deb atashadi [Zurkowski, 1974; 38, Badke, 2010; 74]. Axborot kompetensiyasining eng muhim tarkibiy qismlaridan biri – bu mavjud manbalarni tanqidiy tahlil qilish va ularning ishonchliligini baholashdir. Aynan shu nuqtada CRAAP modeli (Currency, Relevance, Authority, Accuracy, Purpose) eng samarali yondashuvlardan biri sifatida ilmiy va amaliy ta'limda qo'llanilmoqda. Ushbu model ilk bora California State University, Chico tomonidan 2004-yilda ishlab chiqilgan va hozirda dunyo bo'ylab kutubxonachilik, pedagogik yondashuv, til o'qitish, ilmiy tadqiqot metodologiyasi sohalarida qo'llanilmoqda. CRAAP modeli - bu axborot manbalarini besh asosiy mezon asosida tahlil qilish tizimidir [Lanning & Gerrity, 2022; 124]. Har bir harf ma'lum bir tanqidiy baholash mezonini anglatadi:

1.**Currency (yangilik, dolzarblik)** – bu mezon manbaning hozirgi zamon uchun qanchalik yangilangan va dolzarb ekanligini aniqlashga xizmat qiladi, masalan, ilm-fan sohasida, ayniqsa texnologiya, tibbiyot yoki ekologiya kabi tez o'zgaruvchan yo'nalishlarda ma'lumotlarning eng so'ngi holati muhim hisoblanadi.

2.**Relevance (moslik, tegishlilik)** – ushbu mezon manbaning foydalanuvchi ehtiyojlariga yoki muayyan vazifaga qanchalik mos kelishini o'lchaydi. Bu talabalariga har qanday axborotni emas, balki ayni mavzuga oid, aniq va kerakli ma'lumotlarni ajratishga yordam beradi.

3.**Authority (Mualliflik, vakolat)** – axborotni kim yaratganini aniqlash ishonchlilik uchun juda muhim. Agar muallif soha bo'yicha malakali bo'lsa, manbaga ishonish mumkin. Aks holda, noto'g'ri, asossiz yoki shaxsiy fikrga asoslangan axborot tarqalishi mumkin.

4.**Accuracy (Aniqlik, ishonchlilik)** – bu mezon axborotning to'g'riligini, faktlarga asoslanganligini va ilmiy mezonlarga javob berishini tekshiradi. Ayniqsa, statistika, tahliliy ma'lumotlar, iqtiboslar va havolalar borasida aniqlik juda muhim.

5.**Purpose (maqsad, motivatsiya)** – manba maqsadining aniqligi – uning xolisligini baholash imkonini beradi. Har qanday axborot o'ziga xos niyat bilan yaratiladi: ma'lumot berish, o'yin-kulgi, reklama, propaganda. Bu mezon orqali talaba manipulyatsiya yoki yolg'on axborot qurboniga aylanishdan himoyalanaadi.

CRAAP modeli yordamida foydalanuvchi "fake news" (soxta yangilik), noto'g'ri faktlar va sarlavhalarni aniqlab, tanqidiy fikr yuritishni o'rganadi, loyiha va tadqiqot ishlari uchun talabalar mustaqil ravishda ma'lumot to'plash, tahlil qil-

ish, va undan foydalanish bosqichlarida mezon asosida har bir manbani baholaydi. Albatta ushbu modelning yutuqlari bilan birgalikda, integratsiya jarayonida quyidagi qiyinchiliklar yuzaga chiqishiga ham sabab bo'ldi, ushbu kamchilik va cheklovlar quyidagilardir: har bir mezonni baholash subyektiv talqinga bog'liq bo'lishi mumkin. Ba'zi hollarda mezonlar bir-biriga zid ma'lumot beradi. hamisha ham talabalar mezonlarni chuqur anglab baholay olmaydi - maxsus trening kerak bo'ladi.

CRAAP modeli zamonaviy ta'limda axborot kompetensiyasini shakllantirish va mustahkamlashda universal vosita hisoblanadi. Ayniqsa ingliz tilini chet tili sifatida o'rganish jarayonida, talabalar manbalarni tanlash, baholash va ulardan samarali foydalanishni o'rganishi uchun ushbu model juda qulay va zarurdir. Bu model talabani passiv iste'molchidan faol, tanqidiy fikrlovchi foydalanuvchiga aylantiradi. Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, bugungi globallashuv va raqamli transformatsiya jarayonida shaxsning mustaqil axborot izlash, uni tahlil qilish, baholash va samarali foydalanish qobiliyati — axborot kompetensiyasi — zamonaviy ta'lim jarayonining ajralmas tarkibiy qismiga aylanmoqda. Ushbu kompetensiyani rivojlantirishda shaxsga yo'naltirilgan yondashuv asosida talabalarning individualligi, qiziqishlari va ehtiyojlari inobatga olingan holda moslashtirilgan uslub va strategiyalar qo'llanilishi ta'lim samaradorligini oshirish imkonini beradi. SCONUL- Seven Pillars, AASL Standards va CRAAP kabi ilg'or nazariy asoslar axborot manbalarini tanlash, ularga baho berish va ularni amaliy vazifalarni hal etishda qo'llashda yuqori natijadorlikni ta'minlashga xizmat qiladi [Jacobson & Mackey, 2013; 51]. Xususan, SCONUL modeli axborot ehtiyojini aniqlash, axborotga kirish, undan samarali foydalanish va tahlil qilish bosqichlarini qamrab oladi. CRAAP testi (Currency, Relevance, Authority, Accuracy, Purpose) axborot manbalarining ishonchliligi va sifatini tahlil qilish uchun samarali mezon bo'lib, yoshlar orasida media savodxonlikni shakllantirishga xizmat qiladi.

TADQIQOT METODLARI

Tadqiqotda kompleks metodlardan nazariy tahlil (ilmiy adabiyotlar, me'yoriy hujjatlar va pedagogik tajribalarni o'rganish), empirik metodlar (anketa so'rov, teslash, kuzatuv, intervyu), pedagogik eksperiment (konstatlovchi va shakllantiruvchi bosqichlar), statistik-matematik usullar (natijalarni qayta ishlash va solishtirish) qo'llanilgan.

Tajriba-sinov ishlari ilmiy-pedagogik tadqiqotning ajralmas qismi bo'lib, izlanishlar natijalarining haqqoniyligi, amaliy ahamiyati hamda tatbiqiylikni tasdiqlashning asosiy mezonidir. Tajriba-sinov ishining maqsadi olingan natijalarga ko'ra ta'lim va tarbiya jarayonining aniq muammolari yechimiga oid pedagogik va metodik tavsiyalar, pedagogik innovatsiyalar, ta'lim sifatini oshirishga oid ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqishdir.

Bizning tajriba-sinov ishimiz dissertatsiyaning kirish qismida ilgari surilgan g'oyani real sharoitda sinovdan o'tkazib, olib borayotgan ishimizda samarali ta'sir etuvchi omillar asosida yangi va ijobiy natijaga erishishga qaratilgan.

Tajriba-sinovda O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti, Navoiy davlat pedagogika universiteti, Samarqand davlat chet tillar institutining 450 nafar talabalari

ishtirok etdi. Tajriba-sinov ishlarida yuqorida keltirilgan ta'lim tashkilotlaridagi respondentlarni tajriba va nazorat guruhlariga ajratildi. Tanlanma maydonlar ishtirokchilari bo'lmish respondentlardan tajriba oldi va tajriba yakunida axborot kompetensiyasi bo'yicha rivojlanish ko'rsatkichlari aniqlandi, bundan tashqari respondent o'qituvchi va talabalardan axborot kompetensiyasining ahamiyati, uning shaxsga yo'naltirilgan yondashuv bilan o'zaro bog'liqligi haqidagi dastlabki bilim va fikrlarini o'rganish maqsadida ham anketa so'rovnomalar o'tkazildi.

NATIJALAR VA MUNOZARA

Tajriba-sinovda O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti, Navoiy davlat pedagogika universiteti, Samarqand davlat chet tillar institutining 450 nafar talabalari ishtirok etdi. Tajriba-sinov ishlarida yuqorida keltirilgan ta'lim tashkilotlaridagi respondentlarni tajriba va nazorat guruhlariga ajratib, ushbu muassasalarda ishtiroki quyidagi javdalda keltirildi (8-jadvalga qarang):

8-jadval

Tajriba-sinov ishlarida ishtirok etgan respondentlar

№	Ta'lim muassasalari	Jami talabalar	Tajriba guruhi	Nazorat guruhi
1.	O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti	142	70	72
2.	Navoiy davlat pedagogik universiteti	159	82	77
3.	Samarqand davlat chet tillar instituti	149	78	71
Jami		450	230	220

Talabalar nazorat va tajriba guruhlariga bo'ldi. Ajratilgan guruhlarda tajribaning tashkil qilinishi turlicha bo'ldi. Tajriba-sinov guruhida ishlab chiqilgan axborot kompetensiyasini rivojlantirishda shaxsga yo'naltirilgan yondashuv asosida chet tilini o'rgatish asosida tanlangan texnologiyalar amalga joriy qilindi.

Tajriba-sinov ishlari filologiya–ingliz tili ta'lim yo'nalishlari talabalari ishtirokida Ingliz tili darslarida olib borildi. Tajribada quyidagi tadqiqot metodlaridan foydalanildi: faoliyat mahsuli tahlili, kuzatish, anketa, test, ekspert baholash metodi. Tajriba-sinov ishlarini tashkil qilish to'rt bosqichdan iborat bo'lib, ular tashxis va bashorat qilish (prognostik), tashkiliy tayyorgarlik, amaliy va umumlashtiruvchi bosqichlardir. Tajribaning qayd qilinuvchi bosqichi natijalari talabalarining axborot kompetensiyasining takomillashganlik darajasini tavsiflash imkonini berdi. Bu vazifani amalga oshirishning asosi darajali yondashuv hisoblanadi. Darajalarni aniqlash uchun o'rganilayotgan hodisaning o'ziga xosligini aks ettiruvchi kriterial ko'rsatkichlar hisobga olindi. Birinchidan, mavjud til ko'nikma va malakalari (til darajasi yuqoriligi, fan bilan bog'liqligi, shaxsga yo'naltirilgan yondashuv) haqida fikr yuritish imkonini beradigan talabalar tomonidan bajarilgan vazifalarning ilmiylik ko'rsatkichlari. Ikkinchidan, talabaning faoliyat subyekti sifatida shakllanishiga ko'maklashadigan talabalarining faoliyatda shaxsiy namoyon bo'lish sifat tavsiflari (faollik – vazifani yaxshi qabul qiladimi, topshiriqni bajarishga qanchalik tez kirishadi, qiziqishi bormi; e'tiborlilik – yo'riqnomalarni takrorlash yoki o'zgartirish talab qilinadimi; mustaqillik – pedagog yordami talab qilinadimi; tanqidiylik – o'z xatolarini ko'ra olish va

to'g'rilay olish kompetensiyasiga egami, ishni to'g'rilash istagi bormi; ijodiylik elementlari – talaba ishga biror yangilik kiritadimi). Bu darajalar talabalarning axborot kompetensiyasini rivojlantirish orqali til ko'nikmalarini barchasini rivojlantirish imkonini beradi.

Tajriba-sinovda shuningdek korrelyatsion bog'liqliklar metodidan foydalanildi. Bu metod talabalarning axborot kompetensiyasining ijobiy o'sishini ularning umumiy o'zlashtirishi bilan, ingliz tilidan o'zlashtirishi bilan, aniq turkum fanlaridan o'zlashtirishi bilan korrelyatsiyalash jarayonini aniqlash imkonini beradi. Buning uchun ta'lim jarayoni hujjatlari (malaka talablari, o'quv reja, o'quv dasturlari, sillabus, mustaqil ishlar) o'rganildi.

Shunday qilib, tajriba-sinovni baholash bosqichida quyidagi natijalar olindi va ushbu xulosalarga kelindi:

- oliy ta'lim tashkilotlari o'qituvchilari tomonidan fanlarga ajratilgan mustaqil ta'lim soatlariga ajratilgan vaqt mobaynida talabalar axborot kompetensiyasini rivojlantirish uchun vazifalarni bajarishi va ularning axborot kompetensiyasini rivojlantirish muhimligi tan olindi, biroq bunday ish shakllari, metodlari, usul va vositalarini yetarlicha egallanilmagan;

- pedagoglar tomonidan shaxsga yo'naltirilgan yondashuv asosida o'qitish metodi, natijada talabalarning axborot kompetensiyasini rivojlantirish metodikasi amaliyotga to'g'ri joriy qilish, axborot kompetensiyasini maqsadli rivojlantirish jarayonini amalga oshirish muhim;

- ta'lim jarayoniga axborot kompetensiyasini rivojlantirishda shaxsga yo'naltirilgan yondashuv texnologiyasini tadbiq qilish orqali rivojlantirish zarurati muhim ekanligi aniqlandi.

Dissertatsiya yozishda OTTda tahsil olayotgan talabalardan miqdorga va sifatga asoslangan aralash tadqiqot metodidan foydalanildi. Xorijiy tillarni o'qitish metodikasini o'rganish uchun iloji boricha barcha tadqiqot metodlaridan foydalanish kerak. Shunda samarali eng yaxshi metodni boshqalarga tavsiya eta olamiz. Avvalambor, SamDChTI talabalari bilan ikki yil davomida axborot kompetensiyasini rivojlantirish bo'yicha tajriba-sinovlar o'tkazib, shaxsga yo'naltirilgan yondashuvga asoslanib o'qitib o'z tajribamni oshirdim. Talabalarning ushbu yondashuvni qanday qabul qilganini kuzatildi.

Shunday qilib, talabalar til kompetensiyasini rivojlantirish bo'yicha tajriba-sinov ishining shakllantiruvchi bosqichida mashqlardan foydalanishning o'ziga xosligi uning bir paytning o'zida rivojlantirish va tashxisga yo'nalganligidir. Talabalarga ingliz tili darslarida axborot kompetensiyasini rivojlantirishga qaratilgan mashqlarni bajarish taklif qilindi, natijada, bu mashqlarning bajarilishi talabalarda axborot kompetentligini rivojlantirishga qanday ta'sir ko'rsatishini tahlil qilish kerak edi. Bundan keyin yakunlovchi mashqlarni bajarish zarurati haqida xulosa qilindi. Axborot kompetensiyasining rivojlanganlik darajasi haqida ikki ko'rsatkich asosida fikr yuritildi:

A. Nazorat guruhi talabalari bilan taqqoslanganda erishilgan natijalarning yuqoriligi. Tajriba-sinov va nazorat guruhiga har bir darsdan keyin ularning axborot kompetensiyasining rivojlanganligi haqida fikr yuritish imkonini beruvchi topshiriqlar

berildi;

B. Natijalarning o'sish tezligi. Har bir talabaning o'sish tezligi baholab borildi. Ayrim talabalar birinchi mashqlardan keyinroq muvaffaqiyatga erishdi, bu ularda til ko'nikmalari va axborot kompetentligining darajasi yuqoriligini anglatadi. Ayni paytda boshqa talabalarga ko'proq urinish, hatto yordam ko'rsatish talab qilindi. Nutq rivojlanishining har bir bosqichiga mos keladigan mashq va topshiriqlarni bajarish natijalari 9-jadvalda keltiriladi (9-jadvalga qarang):

9-jadval

Tajriba-sinov va nazorat guruhi talabalari tomonidan turli turdagi mashqlar bajarilishining qiyosiy jadvali

T/r	Axborot kompetensiyasini rivojlantiruvchi topshiriqlar turilar	OTT	Tajriba guruhi				Nazorat guruhi			
			Soni	Yuqori daraja	O'rta daraja	Quyi daraja	Soni	Yuqori daraja	O'rta daraja	quyi daraja
1.	CRAAP modeli asosidagi vazifa va topshiriqlar	O'zbekiston davlat jahon tillar universiteti	99	8	24	67	97	9	21	67
		Navoiy davlat pedagogika universiteti	81	7	20	54	73	6	19	48
		Samarqand davlat chet tillar instituti	83	7	19	57	79	7	17	55
		Jami	263	25	65	173	249	25	59	165
2.	SCONUL modeli asosidagi mashqlar tizimi	O'zbekiston davlat jahon tillar universiteti	99	7	20	72	97	7	19	71
		Navoiy davlat pedagogika universiteti	81	6	18	57	73	5	17	51
		Samarqand davlat chet tillar instituti	83	6	19	58	79	6	18	55
		Jami	263	19	57	187	249	18	54	177
3.	AASL asosida tashkil etilgan vazifalar tizimi	O'zbekiston davlat jahon tillar universiteti	99	8	21	70	97	8	20	69
		Navoiy davlat pedagogika universiteti	81	7	18	56	73	6	17	50
		Samarqand davlat chet tillar instituti	83	7	20	56	79	7	18	54
		Jami	263	22	59	182	249	21	55	173

Ta'lim jarayonida talabalarning axborot kompetensiyasini rivojlantirish tajri-

ba-sinov dasturi ishlab chiqildi. Bunda maqsad – shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv orqali talabalarning axborot kompetensiyasi rivojlanganligining yuqori darajasiga erishishga harakat qilindi. Dastur texnologiyada ajratilgan komponentlarga mos ravishda realizatsiyalandi. Ushbu dastur to‘rtta izchil tashkil qilingan bosqichdan iborat bo‘lib, ularning har birida axborot kompetensiyasining shu bosqichga muvofiq turini rivojlantirish vazifasi ko‘zda tutildi va maxsus tanlangan shakl, metod va vositalar yordamida ish olib borildi.

Rivojlantirilgan texnologiya talabalar axborot kompetensiyasini rivojlantirishning taklif qilingan metod, shakl va vositalari variativligini ko‘zda tutadi. Bu har bir talaba individual xususiyatlariga muvofiq, individual sur‘atda rivojlanishi bilan bog‘liq. Shu sababli har bir talabani ta‘lim–tarbiya jarayonida o‘rganib, o‘qituvchi tanlangan texnologiyaning istalgan strukturaviy komponentini realizatsiyalash uchun ish metodlari va vositalarini tanlashi mumkin. Oxirgi bosqichda olingan natijalar quyidagi jadvalda keltirildi (10-jadvalga qarang):

10-jadval

Oxirgi bosqichda olingan natijalar jadvali

T/r	Axborot kompetensiyasini rivojlantiruvchi topshiriqlar turilar	OTT	Tajriba guruhi				Nazorat guruhi			
			Soni	Yuqori daraja	O‘rta daraja	Quyi daraja	Soni	Yuqori daraja	O‘rta daraja	Quyi daraja
1.	CRAAP asosidagi mashqlar tizimi	O‘zbekiston davlat jahon tillar universiteti	99	16	45	38	97	9	30	58
		Navoiy davlat pedagogika universiteti	81	14	39	28	73	7	23	43
		Samarqand davlat chet tillar instituti	83	13	38	32	79	8	20	51
		Jami	263	46	124	93	249	27	75	147
2.	SCONUL mashqlar tizimi	O‘zbekiston davlat jahon tillar universiteti	99	13	39	47	97	8	21	68
		Navoiy davlat pedagogika universiteti	81	12	35	34	73	7	16	50
		Samarqand davlat chet tillar instituti	83	11	35	37	79	6	19	54
		Jami	263	36	109	118	249	21	56	172
3.	ASCOL mashqlar tizimi	O‘zbekiston davlat jahon tillar universiteti	99	16	41	42	97	10	24	63
		Navoiy davlat pedagogika universiteti	81	14	36	31	73	7	20	46
		Samarqand davlat chet tillar instituti	83	15	38	30	79	9	20	50
		Jami	263	45	115	103	249	26	64	159

Ta'lim tizimida filologik ta'lim yo'nalishlaridagi talabalarning axborot kompetensiyasini qo'llash qay darajada muvofiq kelishini aniqlash va ularni yanada rivojlantirish yuzasidan ilmiy fikr-mulohazalar bildirish muhim. Talabalarning axborot kompetensiyasini shaxsga yo'naltirilgan yondashuvga yo'naltirishning samarali yondashuvlarini aniqlash borasida ko'plab tadqiqotlar amalga oshirilgan. Ularning axborot kompetensiyasini shaxsga yo'naltirilgan yondashuvga yo'naltirishning dolzarb masalalarini o'rganish respublikamizda olib borilayotgan ta'lim sohasidagi tadqiqotlarning nazariy, empirik bazasini boyitadi. Oliy ta'lim sifati va samaradorligini oshirishga ta'sir etuvchi omillarning aniqlanishi istiqbolda sohani rivojlantirishga xizmat qiladi. Talabalarning axborot kompetensiyasini shaxsga yo'naltirilgan yondashuv orqali ularda yuzaga kelayotgan nazariy va amaliy muammolarni oqilona va samarali hal eta oladigan ijodkor shaxslar sifatida shakllantirishga xizmat qiladi.

Respublikamizning OTTlarida ayniqsa filologik va xorijiy til yo'nalishlarida tahsil olayotgan talabalar ingliz tilida axborot kompetensiyasini rivojlantirish borasida olib borilgan nazariy metodik tahlillar dissertatsiyada taklif qilingan tizim samaradorligini, hamda maqsadga muvofiqligini asoslashni taqozo qiladi. Tadqiqot bo'yicha o'tkazilgan tajriba-sinov ishlarining samaradorligi ularni maxsus metodika IC asosida olib borilganligi, talabalarning nafaqat axborot kompetentligini, balki tadqiqot olib borish ko'nikmasini rivojlantirish, metodik-didaktik ta'minot vositalari tashkil etilganligi, yaratilgan pedagogik shart-sharoitlarni maqbulligi va ingliz tilini chuqur o'zlashtirish bilan birga ilmiy izlanishlar olib borish mahoratini shakllantirish mezonlari, dastur va qo'llanmalarining ishlab chiqilganligi, hamda tajriba-sinov natijalarini qiyosiy tahlil qilinganligi bilan aniqlandi.

Tajriba-sinov ishlari yakunida nazariy va empirik metodlar asosida zaruriy natijalar aniqlandi. Tadqiqot natijalarining matematik-statistik tahlilini amalga oshirishda Styudent-Fisher mezonidan foydalanildi. Tahlil uchun jadvalda keltirilgan ko'rsatkichlarning o'rtacha umumiy qiymati chiqarildi va tegishli hisoblashlar o'tkazildi. Tajriba va nazorat guruhi baholash natijalarini mos ravishda 1- va 2- tanlanmalar deb olsak, quyidagi variatsion qatorlarga ega bo'lamiz:

<u>1-tanlanma</u>	X_i	yuqori;	o'rta;	past;
(tajriba guruhi)	m_i	30;	37;	10.
<u>2-tanlanma</u>	Y_j	yuqori;	o'rta;	past;
(nazorat guruhi)	N_j	22;	34;	17. $n=$

Tajriba va nazorat guruhlar uchun tanlanma modal qiymatlari mos ravishda $M_t=5$ ba $M_n=3$, ya'ni ular orasidagi farq yetarli darajada bo'lib, $M_t > M_n$ ekan. Bu esa, o'z navbatida, bu tanlanmalar uchun mos o'rta qiymatlar ham $X > Y$ shartlarni qanoatlantirishini oldindan ko'rsatadi. Ularni quyidagi formula asosida hisoblaymiz:

$$\bar{X} = \frac{1}{m} \sum_{i=1}^3 m_i X_i = \frac{1}{76} (30 \cdot 5 + 37 \cdot 4 + 10 \cdot 3) = \frac{1}{76} (150 + 148 + 30) = \frac{328}{76} = 4,31 \approx 4,3$$

$$\bar{Y} = \frac{1}{n} \sum_{j=1}^3 n_j Y_j = \frac{1}{73} (22 \cdot 5 + 34 \cdot 4 + 17 \cdot 3) = \frac{1}{73} (110 + 136 + 51) = \frac{247}{73} = 3,38 \approx 3,9$$

Demak, tajriba guruhida o'rtacha o'zlashtirish nazorat guruhidagidan katta ekan: $\bar{X} > \bar{Y}$.

Olingan natijalardan o'qitish samaradorligini baholash mezoni birdan kattaligi ($Kusb=1,01>1$) va bilish darajasini baholash mezoni noldan kattaligini ($Kbdb=0,43>0$) ko'rish mumkin. Bundan ma'lumki, tajriba guruhlari ko'rsatkichlari nazorat guruhidagilaridan yuqori miqdorga ega. Ushbu o'zlashtirish ko'rsatkichlarini foizlarda hisoblaymiz:

$$\frac{\bar{X}}{3} \cdot 100\% - \frac{\bar{Y}}{3} \cdot 100\% = \frac{4,3}{3} \cdot 100 - \frac{3,9}{3} \cdot 100 = \frac{40}{3} = 13,33\%$$

Demak, yuqorida keltirilgan statistik tahlillar OTTlarda talabalarning axborot kompetensiyasini shaxsga yo'naltirilgan yondashuv asosida o'qitish samaradorligi va natijadorligini oshiradi degan farazning tajriba-sinov natijalariga ko'ra, tasdiqlanganligini e'tirof etish mumkinligiga asos yaratadi.

XULOSALAR

Shaxsga yo'naltirilgan yondashuv talabani ta'lim jarayonining markaziga qo'yadi, uni tayyor bilimni qabul qiluvchi emas, balki faol bilim yaratuvchi, izlanadigan va o'z fikrini asoslay oladigan shaxs sifatida tarbiyalaydi. Shu yo'l bilan talabalarda mustaqil fikrlash, o'zini anglash va shaxsiy javobgarlik hissi shakllanadi. Axborot kompetensiyasi faqatgina axborotni topish yoki yodlash ko'nikmasi bilan cheklanmaydi. Bu tushuncha chuqur tahlil qilish, manbalarni solishtirish, axborotning ishonchliligini baholash va undan ijodiy foydalanishni qamrab olgan ko'nikmalar majmuasini anglatadi. AASL modeli talabalarga axborotni izlash, uni boshqarish, baholash va yakunda mustaqil natija yaratish jarayonlarini bosqichma-bosqich o'rgatib, ularni yanada samarali o'rganishga yo'naltiradi. Bu model refleksiya, baholash va o'zini rivojlantirishni doimiy ravishda talab qiladi. SCONUL Seven Pillars modeli esa axborotga ehtiyojni anglashdan tortib, uni izlash, boshqarish, baholash va amalda qo'llashgacha bo'lgan jarayonni chuqur o'rgatadi. Bu model talabalarning mustaqil ilmiy izlanish va professional rivojlanishiga xizmat qiladi. CRAAP modeli orqali talabalar topgan ma'lumotlarini Currency (yangiligi), Relevance (dolzarliligi), Authority (muallifning obro'si), Accuracy (to'g'riligi) va Purpose (maqsadi) mezonlari asosida tanqidiy baholashni o'rganadilar. Bu esa axborotni tanlashda ongli va mas'uliyatli yondashuvni shakllantiradi. Shaxsga yo'naltirilgan yondashuv ushbu xalqaro modellarning imkoniyatlarini yanada kuchaytirib, ularni talabaning individual qobiliyatlari, ehtiyojlari va qiziqishlariga moslashtirishga yordam beradi. Shu orqali talabalar bilim olish jarayoniga chinakam qiziqadi. Elektron resurslar, onlayn kutubxonalar va raqamli platformalarni o'quv jarayoniga integratsiya qilish axborot kompetensiyasini rivojlantirishga katta turtki beradi. Bu talabalarning doimiy ravishda mustaqil axborot izlash ko'nikmasini shakllantiradi. Shaxsga yo'naltirilgan yondashuvni qo'llagan holda o'qituvchi endi faqat ma'lumot yetkazuvchi emas, balki yo'naltiruvchi, rag'batlantiruvchi va talabaning izlanishini boshqaruvchi ko'makchi sifatida ishtirok etadi. Bu talabalarning o'zini ishonchli his qilishiga va erkin fikrlashiga sharoit yaratadi. Axborot kompetensiyasini rivojlantirish nafaqat

o'quv jarayonining sifatini oshiradi, balki talabalarning kundalik hayotda, kasbiy faoliyatda va jamiyatda raqobatbardosh, ongli va mustaqil qaror qabul qila oladigan shaxs bo'lib yetishishiga yordam beradi. Shaxsga yo'naltirilgan yondashuv asosida AASL, SCONUL va CRAAP modellarini qo'llash, axborotni izlashdan tortib uni baholash va ijodiy qo'llashgacha bo'lgan barcha bosqichlarni puxta o'rgatadi. Bu esa talabalarda zamonaviy dunyo talab qilayotgan ijodkorlik, tanqidiy fikrlash va axborotni boshqarish salohiyatini mustahkamlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Alewine, M. C., & Canada, M. (2017). *Introduction to information literacy for students*. Hoboken: Wiley.
2. American Library Association. (1989). *Presidential Committee on Information Literacy: Final report*. Chicago: American Library Association.
3. Anunobi, C., & Udem, O. K. (2014). Information literacy competencies: A conceptual analysis. *Journal of Applied Information Science and Technology*, 7(2), 16–24.
4. Association of College and Research Libraries. (2000). *Information literacy competency standards for higher education*. Chicago: American Library Association.
5. Association of College and Research Libraries. (2016). *Framework for information literacy for higher education*. Chicago: American Library Association.
6. Badke, W. (2010). Foundations of information literacy: Learning from Paul Zurkowski. *Online*, 34(1), 48–54.
7. Brennan, E. A., Bruce, C. S., & Hughes, H. E. (2020). Introducing a health information literacy competencies map: Applying information literacy frameworks to patient care. *Journal of the Medical Library Association*, 108(1), 77–89.
8. Butler, W. D., Sargent, A., & Smith, K. (2021). *The information literacy user's guide: An open, online textbook* (2nd ed.). Albany: Pressbooks/Open SUNY.
9. Chen, C. C., Huang, Y. M., & Tsai, C. C. (2022). Research issues of the top 100 cited articles on information literacy in higher education. *Australasian Journal of Educational Technology*, 38(2), 59–74.
10. Cooke, N. A. (2018). *Fake news and alternative facts: Information literacy in a post-truth era*. Chicago: ALA Editions.
11. d'Angelo, B. J., Jamieson, S., Maid, B., & Walker, J. R. (Eds.). (2016). *Information literacy: Research and collaboration across disciplines*. Fort Collins: The WAC Clearinghouse; University Press of Colorado.
12. Delmond, A. R., Johnson, A. M., & Smith, R. L. (2024). An interdisciplinary assessment of information literacy. *The Journal of Academic Librarianship*, 50(1), 87–98.
13. Eisenberg, M. B., Lowe, C. A., & Spitzer, K. L. (2004). *Information literacy: Essential skills for the information age* (2nd ed.). Westport: Libraries Unlimited.
14. Forster, M. (Ed.). (2017). *Information literacy in the workplace*. London: Facet Publishing.
15. Gregory, L., & Higgins, S. (Eds.). (2015). *Information literacy and social justice: Radical professional praxis*. Sacramento: Library Juice Press.
16. Horton, F. W., Jr. (2008). *Understanding information literacy: A primer*. Paris: UNESCO.
17. Jacobson, T. E., & Mackey, T. P. (2013). Proposing a metaliteracy model to redefine information literacy. *Communications in Information Literacy*, 7(2), 84–91.
18. Landøy, A., Popa, D., & Repanovici, A. (2020). Basic concepts in information literacy. In A. Landøy, D. Popa, & A. Repanovici (Eds.), *Collaboration in designing a pedagogical approach in information literacy* (pp. 9–32). Cham: Springer.
19. Lanning, S., & Gerrity, C. (2022). *Concise guide to information literacy* (2nd ed.). Santa Barbara: Libraries Unlimited.
20. Lau, J. (2006). *Guidelines on information literacy for lifelong learning*. The Hague: International Federation of Library Associations and Institutions.

21. Mackey, T. P., & Jacobson, T. E. (2014). *Metaliteracy: Reinventing information literacy to empower learners*. Chicago: American Library Association.
22. Mbandje, D. C. (2023). Digital competence and information literacy: Clarifying concepts based on a literature review. *Educational Media International*, 60(2), 75–90. <https://doi.org/10.1080/09523987.2023.2324584>.
23. Rader, H. B. (2002). Information literacy 1973–2002: A selected literature review. *Library Trends*, 51(2), 242–259.
24. Rath, L. (2023). Information literacy is a social practice: A threshold concept. *Journal of Education for Library and Information Science*, 64(1), 76–88.
25. Saranto, K., & Hovenga, E. (2004). Information literacy—What it is about? Literature review. *International Journal of Medical Informatics*, 73(6), 503–513.
26. Taylor, N. G., & Jaeger, P. T. (2021). *Foundations of information literacy*. Chicago: ALA Neal-Schuman.
27. Trixa, J., Novak, P., & Kralova, M. (2024). Information literacy in the digital age: Pre-service teachers' competence. *Education and Information Technologies*, 29(1), 66–82.
28. Weiner, S. (2011). Information literacy and the workforce: A review. *Communications in Information Literacy*, 5(1), 7–14.
29. Welsh, T. S., & Wright, M. (2010). *Information literacy in the digital age: An evidence-based approach*. Oxford: Chandos Publishing.
30. Zurkowski, P. G. (1974). *The information service environment: Relationships and priorities*. Washington, DC: National Commission on Libraries and Information Science.